JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARI FAOLIYATIDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI

Muallif	**Yusupov Shohzodbek Shonazar o'g'li**
O'qish yoki ish joyi	**14-son Jazoni ijro etish koloniyasi, Tezkor-qidiruv bo'limi tezkor vakili leytenant**
Qabul qilindi	**18.09.2023**
Nashr qilindi	**20.09.2023**

Annotatsiya

Maqolada jazoni ijro etish muassasalari faoliyatida ta'lim va tarbiyaning o'rni, ahamiyati, tizimda amalga oshirilgan islohotlar hamda mahkumlar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlarni tashkil etishga oid fikr va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar

Tartibot, tartibotni ta'minlash, tarbiyaviy-profilaktik ishlar, jazoni ijro etish muassasasi, jazoni o'tash tartibi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, profilaktik ishlarni tashkil etishning zamonaviy tashkiliyhuquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarni ilmiy yechimini topish dolzarb hisoblanadi.

2023 yilning dastlabki 6-oyida O'zbekiston Respublikasida sudlari tomonidan 2711 nafar shaxslarga jinoiy jazolar tayinlangan bo'lib, shundan 2093 nafari yoki 77,2 foizi ozodlikdan mahrum qilingan[1].

Shu o'rinda bir savol tug'iladi, maktab, kollej va litsey o'quvchilari ozodlikdan mahrum etilgandan so'ng ta'lim yo'nalishini qanday davom ettirishi mumkin.

Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini isloh qilishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari qabul qilindi.

Amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta turmushini ta'minlash, har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat organlari faoliyatining ochiqligini hamda ularning hisobdorligini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar bajarildi.

Olib borilayotgan islohotlar ichki ishlar organlari tizimini ham qamrab olib, jazoni ijro etish muassasa va organlari faoliyati tubdan takomillashtirildi.

Mamlakatimizda jinoyat uchun jazo tayinlash, uni ijro etish siyosati ham insonparvarlik tamoyillari asosida o'zgardi. Jinoyat qonunchiligiga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlari kiritildi va bu turdagi jazolarni ijro etuvchi Probatsiya xizmati tashkil etildi. Mahkumlarning huquqlari ko'lami kengaytirilib, ularni saqlash va ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning yashash sharoitlari halqaro standartlar talablari asosida yanada yaxshilandi, jazoni ijro

[1] www.stat.sud.uz

etish muassasalari faoliyatida jamoatchilik ishtiroki va nazorati, shuningdek insonparvarlik komissiyalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni[2] mamlakatimizda inson huquqlari, sha’ni va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni yangi bosqichga olib chiqdi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mahkumlarning mehnat qilish, ijtimoiy ta’minot olish va xalqaro e’tirof etilgan boshqa huquqlarini ta’minlash, ular ozod etilganlaridan so‘ng ijtimoiy moslashuvlari va jamiyatga reintegratsiyasiga ko‘maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, ushbu yo‘nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, bu borada mavjud qonunchilikni izchil takomillashtirib borish, jazo tayinlash va uni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng tatbiq etish, qiynoklarning oldini olish bo‘yicha preventiv mexanizmlarni takomillashtirish, jazoni ijro etish tizimiga samarali amaliy mexanizmlarni, shuningdek zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan elektron hujjat almashinuvini yo‘lga qo‘yish, faoliyati xalq manfaatlari, jumladan mahkumlar qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilshga yo‘naltirilgan jazoni ijro etish tizimining yangi qiyofasini shakllantirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilandi.

Jinoyat sodir etgan shaxs jamiyatdan butunlay chiqarib tashlanmaydi. Faqat ma’lum bir vaqt mobaynida jamiyatdan ajratilib, qayta tarbiyalab, yana jamiyatga to‘laqonli shaxs sifatida qaytariladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 45-moddasiga asosan erkak voyaga etmagan mahkumlarni saqlash uchun tarbiya koloniyalari tashkil etilgan.

Mazkur tarbiya tarbiya koloniyalarida o‘n olti yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan mahkumlar kattaroq yoshdagi mahkumlardan, birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlar ilgari ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o‘tagan mahkumlardan alohida saqlanadilar.

Jinoiy jazoni ijro etish tizimining asosiy vazifasi jinoyat sodir etgan shaxsning ruhiy korreksiyasini to‘g‘ri shakllantirib, uning huquqiy ong va madaniyatini, fuqarolik mas’uliyatini oshirish, shaxsni qonunlarni, jamiyatda o‘rnatilgan urf-odatlarni hurmat qiladigan va ularga rioya etadigan qilib jamiyatga qaytarishdan iborat. Jazoni ijro etish muassasalarida yetarli darajada tartibot va tarbiyaviy ishlarni ta’minlamay turib, tizim oldiga qo‘yilgan vazifalarni to‘laqonli bajarib bo‘lmaydi.

Tartibot bu – jinoyat-ijroiya qonunchiligiga va uning asosida qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish va o‘tash tartibidir.

Tartibotni ta’minlashda mahkumlar ustidan olib boriladigan nazorat faoliyati muhim ogohlantiruvchi funksiyani bajaradi. Shu asosida monitoring tahlillari olib boriladi, tashkiliy-amaliy va ruhiy-tarbiyaviy tadbirlarni belgilash uchun ma’lumotlar bazasi yaratiladi. Nazorat usullari shartli ravishda ikki guruhga bo‘linadi.

Birinchi guruh – jazoni ijro etish muassasalarida yo‘l qo‘yilgan huquqbuzarliklarni, ularning sodir etilishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan nazorat usullari. Bu usullar:

- mahkumlar ustidan yashash va ish joylarida muntazam nazorat o‘rnatish;
- sutka davomida ro‘yxat bo‘yicha mahkumlarni tekshirib borish;

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // 28.01.2022 / https://lex.uz/docs/5841063.

• taqiqlangan narsa-buyumlarni aniqlash maqsadida jazoni ijro etish muassasasining yashash va ishlash hududlarida, alohida bino va xonalarda tintuv olib borish, mahkumlarni shaxsiy tintuvdan o‘tkazish;

• mahkumlarga kelgan jo‘natma, yo‘qlov va banderollarni ko‘zdan kechirish;

• mahkumlarning uchrashuvlari va telefon orqali so‘zlashuvlarini nazorat qilish;

• muassasaning yashash, ishlab chiqarish va boshqa ob’ektlarini qo‘riqlash va nazorat qilish;

• tartibot talablari o‘rnatilgan hududlarda va muassasa atrofida patrullik olib borish;

• taqiqlangan narsa va buyumlar mahkumlar ko‘liga tushishining oldini olish maqsadida tartibot talablari o‘rnatilgan joylarda avtotransport vositalari va fuqarolarni tekshirish;

• muassasa xodimlari va mahkumlarning xavfsizligini ta’minlashdan iborat.

Ikkinchi guruh – jazoni o‘tash tartibini ta’minlash bilan bog‘liq nazorat usullari. Bu usullar:

• mahkumlarning muassasa ichki tartib-qoidalariga amal qilishlari va o‘z majburiyatlarini bajarishlarini, o‘z huquqlaridan foydalanishlarini ta’minlash;

• mahkumlar belgilangan kiyimni kiyishlari, ko‘krak nishonlar va farqlovchi belgilarni taqib yurishlarini nazorat qilish, yo‘l qo‘yilayotgan intizom va tartibbuzarliklarni aniqlash;

• ishlab chiqarishda foydalaniladigan dastgohlar, xomashyo va materiallar, elektroenergiyadan boshqa maqsadlarda foydalanishlarning oldini olish;

• intizomiy jazolarni o‘tash tartibini ta’minlashdan iborat.

Voyaga etmagan mahkumlar belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 87,9 foizigacha bo‘lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar yil mobaynida:

– yigirma to‘rt marta qisqa muddatli va sakkiz marta uzoq muddatli uchrashuv;

– yigirma to‘rt marta telefon orqali so‘zlashuv;

– o‘n ikkita posilka yoki yo‘qlov;

– o‘n ikkita banderol olish huquqiga ega.

Voyaga yetmagan mahkumlarga ota-onasi va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan uchrashuvlar cheklanmagan miqdorda beriladi.

O‘n sakkiz yoshga to‘lgan va tarbiya koloniyalarida qoldirilgan mahkumlarga voyaga yetmagan mahkumlar uchun belgilangan normalarda ovqat, ust-bosh, moddiy-maishiy ta’minot va boshqa jazo o‘tash sharoitlari tatbiq etiladi. Bu shaxslarning mehnat sharoitlari mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum etish joylarida jazo muddatini o‘tayotgan mahkumlarning ta’lim olishi va kasb - hunar egallashlari bo‘yicha huquqiy kafolat mustahkamlandi[3].

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 apreldagi “Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar uchun umumiy ta’lim va kasb-hunarga o‘qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 318-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq jazoni ijro etish muassasalari negizida hududiy umumta’lim maktablarining filiallari va kasb-hunarga o‘qitish markazlari tashkil etildi.

Kasb-hunarga o‘qitish markazlarining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

birinchi, milliy g‘oyaga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma’naviy boy, mustaqil dunyoqarashga ega va mustaqil fikrlaydigan barkamol shaxsni shakllantirish;

[3] Bakaeva F. va boshqalar. Mahkumlar huquqlari: xalqaro va milliy standartlar. – T.: 2021. – B. 201.

ikkinchi, davlat ta’lim standartlari doirasida mahkumlarning sifat jihatidan yuqori darajada bilim olishi va ularni kasbga tayyorlashni ta’minlaydigan umumta’lim hamda kasb-hunar ta’limi dasturlarini amalga oshirish;

uchinchi, mahkumlarni jazodan ozod etilganidan so‘ng jamiyatga moslashtirish maqsadida mehnat bozorida talab etilgan kasblarni egallashi uchun ularga mehnat ko‘nikmalarini singdirish va mustahkamlash[4].

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mazkur islohotlarning bosh omili voyaga etmagan mahkumlarni qayta jinoyat sodir etishini oldini olish va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qaratilgan. Shu bois, voyaga yetmagan shaxs ozodlikdan mahrum qilinsa ham ta’lim olishdan to‘xtab qolmaydi. 11-sinfni tamomlashga qadar jazoni ijro etish muassasalarida yetarli shart-sharoitlar yaratilgan.

Jazoni ijro etish tizimining serqirra faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish uchun qabul qilingan qonunlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari mazmun-mohiyatini samarali targ‘ib qilish, mahkumlar ongiga yetkazish, shuningdek jazoni ijro etish muassasalarida ularga og‘ishmay amal qilinishiga erishish shartdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni // 28.01.2022 / https://lex.uz/docs/5841063.

2. Bakaeva F. va boshqalar. Mahkumlar huquqlari: xalqaro va milliy standartlar. – T.: 2021. – B. 201.

3. Turg‘unov I., YuldashevM. Mahkumlarning huquqiy holati. O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir A.Saidov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. –B. 118.

4. Шамансуров А. Проблемы совершенствования законодателства системы исполнения наказаний: теория и практика. –Т.: 2021.

5. Овсянникова А., Россман Э. Пенитенциарные системы и пенитенциарные реформы в зарубежных странах. Аналитический обзор. Москва, 2017.

6. www.stat.sud.uz

[4] Turg‘unov I., YuldashevM. Mahkumlarning huquqiy holati. O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir A.Saidov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. –B. 118.